

QO‘QON XONLIGI VA ROSSIYA O‘RTASIDAGI DIPLOMATIK VA SAVDO-IQTISODIY MUNOSABATLAR

Lapasov Mirkomil Xasanovich, Jizzax shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi

Лапасов Миркомил Хасанович, Преподаватель Президентской школы в Джизаке, Джизак, Узбекистан

Lapasov Mirkomil Khasanovich, Teacher of the Presidential School in Jizzakh, Jizzakh, Uzbekistan

ANNOTATSIYA

Qo‘qon xonligi qulay geografik sharoitda, karvon yo‘llari ustida va dehqonchilik qadimdan rivojlangan hududda joylashganligi sababli taraqqiy etgan edi. Qo‘qon shahri XVIII-XIX asr birinchi yarmida nafaqat xonlikning ayni paytda O‘rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri edi. Qo‘qon xonligida keng tarmoqli hunarmandchilik sohasining rivojlanganligi uning qo‘shni davlatlar bilan savdo aloqalari o‘rnatishga imkon yaratgan.

Kalit so‘zlar: savdo-sotiq, karvon yo‘llari, Umarxon, hunarmandchilik, qog‘oz, Mo‘yi muborak

ДИПЛОМАТИЧЕСКИЕ И ТОРГОВО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ КОКАНДСКИМ ХАНСТВОМ И РОССИЕЙ

АННОТАЦИЯ

Кокандское ханство развивалось благодаря своим благоприятным географическим условиям, расположению караванных путей и древнему развитию земледелия. В первой половине XVIII-XIX веков Коканд был не только одним из крупнейших городов ханства в Средней Азии. Развитие широкого спектра ремесел в Кокандском ханстве позволило ему установить торговые отношения с соседними странами.

Ключевые слова: торговля, караванные пути, Умархан, ремесла, бумага, Мой Муборак

DIPLOMATIC, TRADE AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE KOKAND KHANATE AND RUSSIA

ABSTRACT

The Kokand khanate developed due to its favorable geographical conditions, the location of caravan routes and the ancient development of agriculture. In the first half of the XVIII th and XIX th centuries, Kokand was not only one of the largest cities of the khanate in Central Asia. The development of a wide range of handicrafts in the Kokand khanate allowed it to establish trade relations with neighboring countries.

Keywords: trade, caravan routes, Umarkhan, handicrafts, paper, Moy Muborak

Kirish

Qo‘qon xonligi qulay geografik sharoitda, karvon yo‘llari ustida va dehqonchilik qadimdan rivojlangan hududda joylashganligi sababli taraqqiy etgan edi. Qo‘qon shahri XVIII-XIX asr birinchi yarmida nafaqat xonlikning ayni paytda O‘rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri edi. Qo‘qon shahri xonlikning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaziga aylantirilgan. Xonlikda Qo‘qon, Toshkent, Andijon, Namangan kabi yirik shaharlar mavjud bo‘lib, ularda xo‘jalik tarmoqlaridan hunarmandchilik sohasi keng ko‘lamda taraqqiy topgan edi. Masalan: Qo‘qonda hunarmandchilikning quyidagi turlari bo‘lgan. Misgar, zargar, o‘ymakor, qurolsoz, kulol, qog‘ozgar, to‘qimachi, do‘ppi tikuvchi, kashtakach, ko‘priksoz, temirchi, nonvoy, aravasozi, baxmalbof. bujgun, bo‘yoqchi, gilkor, dorikash, jibachi, devorzan, degrez, yormado‘z, kutay, miltiqsoz, najjor, nayzagar, panjarasoz, pillakash, po‘stindo‘z, taqachi, tubrez, paranjido‘z, chodirchi, chevar, chitgar, gilamchi va hokozolar. Qo‘qon shahrida haftaning chorshanba va yakshanba kunlari bozor bo‘lgan. Qo‘qon xonligida keng tarmoqli hunarmandchilik sohasining rivojlanganligi uning qo‘shni davlatlar bilan savdo aloqalari o‘rnatishga imkon yaratgan[1].

Qo‘qon xonligi bilan Rossiya o‘rtasidagi munosabatlar boshdqa xonliklarga nisbatan kechroq boshlangan. Qo‘qon xonligining Rossiyadan ancha olisda joylashganligi aloqalar o‘rnatilishiga imkon bermagan. Vaholanki, Qo‘qon xonligi O‘rta Osiyo xonliklari, qo‘shni Xitoy, Hindiston, Qirg‘iz dashtlari bilan jadal

diplomatik va savdo-iqtisodiy munosabatlari o'rnatgan. XIX asr boshlaridan Rossiya Qo'qon xonligiga katta qiziqish bilan qaray boshlagan.

XVIII-XIX asrlarda Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish tanazzulga ketayotgan davrda Qo'qonda qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yila boshlangan. Bu tovar tayyorlash Samarqandlik qog'oz ishlab chiqaruvchi ustalarning Qo'qonga ko'chib kelishi bilan bog'liq. Buning natijasida Qo'qon Orol dengizidan Xitoygacha qog'oz ta'minoti bilan shug'ullanuvchi monopoliyaga aylanib qolgan desak xato bo'lmas. Qo'qon qog'ozi Qoshg'ar, hattoki shimoliy Afg'onistonga ham olib borilgan. Qog'oz ustaxonasi Qo'qon shahrining Mo'yi muborak darvozasi orqasidagi maqbara yonida joylashgan. Qog'oz juvozi oddiy saroydan iborat bo'lib, sathi 25-30 kvadrat metr, ayvonning bir tomonida juvozxona, boshqa tomonida qog'oz hamiri uchun katta moslama joylashgan. Usta o'z xalfalari yordamida bir kunda 300 varoq qog'oz tayyorlangan. Qo'qondan tashqari boshqa joylarda ham qog'oz ishlab chiqilgan. Ammo Qo'qon qog'ozi o'zining sifati va ko'pligi bilan ulardan ancha ustun bo'lgan. O'rta Osiyolik olimlar, tarixchilar, shoirlar o'z asarlarini Qo'qon qog'oziga yozganlar. Bu qog'ozlardan devonxonada ham keng foydalanilgan. Mahalliy qo'lyozma asarlar va turli xil diplomatik hujjatlar Qo'qon qog'ozida yozilgan. XIX asr boshlarida Toshkentda bo'lgan sibir kazaki Maksimov qog'oz Qo'qon va Toshkentda tayyorlanadi, deb yozgan edi[2].

Qo'qon qog'ozining hajmi uzunligi 58 sm, eni 50 sm bo'lgan. Uning 240 varog'i bir bog' bo'lib, birinchi jahon urushi arafasida va boshlarida birinchi navi 6 rub., ikkinchi navi 4 rub. va uchinchi navi 3 rub. turgan. Qo'qonda ipakdan tayyorlangan, juda sifatli qog'oz ham bo'lgan. Ipak qog'ozi juda qimmat bo'lganligi uchun ehtiyoj kam bo'lgan. Ipak qog'ozi maxsus buyurtma asosida tayyorlangan[3].

Qo'qon O'rta Osiyo xonliklari, Xitoy, Hindiston, Eron, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan karvon yo'llari orqali bog'langan bo'lib, xonlik ular bilan qizg'in savdo munosabatlariga kirishgan. Rossiyaning Qo'qon xonligi bilan savdo-siyosiy munosabatlari boshda O'rta Osiyo xonliklariga nisbatan biroz sust rivojlangan. Bu holatni esa xonlikning Rossiyadan anchagina uzoqligi va Toshkent

bekligi orqali ajralib turishi bilan izohlash mumkin. Rossiya bilan Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi savdo va diplomatik munosabatlar XIX asrning ikkinchi o‘n yilliklaridan boshlab jadal rivojlana boshlangan. Rossiya bilan Qo‘qon munosabatlari dastlabki davrlarda do‘stona bo‘lib, har ikki tomon bu aloqalardan manfaatdor edi. Qo‘qon xonligi va Rossiya o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va siyosiy-diplomatik munosabatlar masalasi rus elchilari va sayyohlari hisobotlarida, hamda maxsus asarlarda o‘z aksini topgan. Rossiyaning Qo‘qon bilan aloqalari Sibir orqali amalga oshirilgan. 1806-yil 13-yanvarda Sibir inspeksiyasining Rossiya kommertsiya (savdo-sotiq) vaziri N.P.Rumyantsevga bergan ma‘lumotida Qo‘qonga savdo karvonini jo‘natganligini xabar qilgan. Biroq, savdogar Qo‘qonga yetib kelmasdan, Turkistondan orqaga qaytib ketgan. Navbatdagi Rossiyadan Qo‘qonga jo‘natilgan kalugalik savdogarlar Ivan va Akim Sveshnikovlar karvoni 1811-yilda Qo‘qon xonligiga muvaffaqiyatli yetib kelishgan. Qo‘qon xonligi bilan savdo-sotiqni birinchi marta yo‘lga qo‘yishga musharraf bo‘lgan Ivan va Akim Sveshnikovlar rus hukumati tomonidan munosib taqdirlangan edilar[4]. Rossiyadan savdo karvoni kelganligidan Qo‘qon xoni Umarxon rus hukumatiga Sibir orqali erkin savdo munosabatlarini yo‘lga qo‘yishni taklif qilgan. Bu taklif Peterburg hukmron doiralari manfaatlariga mos kelganligidan foydalangan Aleksandr I uni qo‘llab-quvvatlagan. Rossiya imperiyasi Qo‘qon xonligi bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga alohida ahamiyat berib, Qo‘qon xonligidan keladigan elchilar va savdogarlarni himoya qilish yo‘llari izlangan[5]. O‘rta Osiyo va Sibir munosabatlari bo‘yicha yirik mutaxassis H.Ziyaevning ma‘lumotlariga ko‘ra, Rossiyaga kelgan Qo‘qon xoni elchisi Shokirbek Qo‘qonlik savdogarlarning Rossiya imperiyasida erkin savdo qilishlari hamda Qo‘qon bilan Rossiya o‘rtasida savdo aloqalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratish kerakligini bildirgan[6].

Rus hukumati Rossiyadan O‘rta Osiyoga jo‘natilayotgan ekspeditsiya va elchiliklarga maxsus topshiriqlar bergan. Xususan, 1813 yili Sibir korpusi tarjimoni Filipp Nazarov maxsus topshiriqlar bilan, Qo‘qonga, ya‘ni Petropavlovskda Peterburgdan kelayotgan Qo‘qon xoni elchisining o‘ldirilishi natijasida kelib chiqqan mojaroni hal qilish maqsadida kelgan. F.Nazarovning

1813-1814 yillarda Qo‘qon xonligiga qilgan sayohati natijasida, 1821 yilda “Записки о некоторых народах и землях средней части Азии” kitobi nashrdan chiqqan. Asar tarixiy-etnografik xarakterga ega bo‘lib qo‘qonliklarning Qoshg‘ar, Xitoy, Xiva, Buxoro va Sharqiy Eron bilan savdo aloqalari haqida xabar beriladi. U Qo‘qon xonining elchilarni qabul qilish marosimida ishtirok etib, qabul marosimi chog‘ida Xitoy, Xiva, Buxoro va boshqa o‘lkalardan kelgan elchilarini ko‘rgan[7]. F.Nazarov O‘ratepa shahri haqida yozib, u yerda aholi loy (paxsa) uylarda yashab, xonadonlarida pux ro‘mollar to‘qiydi, deb e‘tirof qiladi. Asarda O‘ratepa aholisi turkmanlar, eroniylar, Buxoroga qarashli bo‘lgan joylardagi ko‘chmanchi arablar bilan savdo qilishadi, deb ta‘kidlanadi.

1826-yili Азиатский Вестник jurnalida e‘lon qilingan maqolada Qo‘qon aholisi paxta va ipak yetishtirish bilan shug‘ullanishi, Qo‘qonliklar Xitoy, Xiva va Eron bilan savdo qilishi haqida ma‘lumot berilgan[8]. 1828-yilda Omsk shahriga Qo‘qonlik elchilar Sadr Gamal‘dar Tursunxo‘ja Nayzaxo‘ja va Xo‘ja Mir Qurbon Mamat Qosimovlar Rossiya podshosi Nikolay I ga ikki mamlakat o‘rtasida do‘stona aloqalar o‘rnatish taklifi bildirilgan Qo‘qon xoni yorlig‘ini topshirish uchun kelgan. Osiyo departamentida elchilar juda yaxshi kutib olingan hamda ularga Qo‘qon xonligidan keladigan elchilar va savdogarlarni imperiya o‘z himoyasiga olishi bildirilgan, shuningdek Rossiya-Qo‘qon munosabatlarini mustahkamlash va rivojlantirish taklif qilingan.

Ikki davlat o‘rtasidagi kelishuvga asosan 1829-yil 12-avgustda Omskdan Qo‘qonlik elchilar bilan hamrohlikda N.I.Potanin Qo‘qonga elchi qilib jo‘natiladi. U Qo‘qon shahrida besh oy bo‘ladi va 1830-yilda yurtiga qaytish uchun yo‘lga chikadi. N.I.Potanin sayohati davrida o‘zi shohid bo‘lgan voqea-hodisalarni yozib qoldirgan[9]. Uning asarida Qo‘qon xonligi viloyatlaridagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, mahalliy yo‘llar, harbiy qo‘shin tuzilishi, diniy urf-odatlar, o‘simliklar dunyosi to‘g‘risidagi turli xil ma‘lumotlar qamrab olingan.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlarga asoslanib Qo‘qon va Rossiya ikki davlat o‘rtasida do‘stona savdo-iqtisodiy aloqalar o‘rnatilishidan manfaatdor bo‘lgan.

Manfaatdorlik hissi ular o'rtasida elchilik va savdo-sotiqning rivojlanishiga xizmat qilgan, deyish mumkin. Ammo, XIX asr boshlarida Rossiya bilan Qo'qon xonligi o'rtasida boshlangan do'stlik muhitidagi aloqalar asr o'rtalariga kelib dushmanlik kayfiyati bilan almashinadi. Rossiyaning O'rta Osiyo hududlarini egallab, so'ngra afsonaviy Hindistonga chiqish orzusi uni janub tomonga bosqinchilik yurishlarini boshlashga sabab bo'ldi. Rossiyaning O'rta Osiyo hududlariga dastlabki yurishi aynan Qo'qon xonligiga qaratilgan bo'lib, bu harakat xonlikning tugatilishi bilan yakun topgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Р.Р.Алимова. Ўрта Осиё хонликларининг кўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари. Т. 2017. Б.94
2. Потанин В. Показание сибирского козюка Максимова о Кокандском владении// ИРГО.1860. С.28
3. Разводовский В.К. Кустарное производство бумаги в Узбекистане//Советская этнография. М. 1940. С. 147
4. Н.А.Халфин. Россия и ханства Средней Азии (первая половина XIX века). М. 1974. С.223
5. Р.Р.Алимова. Ўрта Осиё хонликларининг кўшни давлатлар билан дипломатик ва савдо-иқтисодий муносабатлари. Т. 2017. Б.97
6. Х.Зияев. Средняя Азия и Сибирь (вторая половина XVI-XIX вв.). Т.1964. С.50-51
7. Филипп Назаров. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. М.1968
8. О нынешнем состоянии некоторых областей и городов в Средней Азии// Азиатский Вестник. Т.1. СПб. 1826. С.229-230
9. Записки и Кокандском ханстве, хорунжего Потанина (1830 года) // Вестник Русского географического общества за 1856 год. КН. VI. СПб. 1857